



МАКТАБГАЧА YOSHDAKI BOLALARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Tojiiyeva Asila Abdimannon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasida kompetensiyaviy yondashuvining ahamiyati, soha va tayanch kompetensiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, ta’lim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat.

Kirish.

Har bir yurtning iqtisodiy qudrati, hayot darajasining beqiyos yuksalib borishi ilm-fan taraqqiyoti, ta’lim tizimining raqobatbardoshligi bilan baholanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta’lim sohasida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Sohada olib borilayotgan bu islohotlar ta’lim sifatini yanada oshirish, ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, yuksak salohiyatlari, har tomonlama yetuk, jismoniy varuhiy barkamol avlodni shakillantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, bugungi davr talablariga javob bera oladigan ta’lim tizimini yaratishni vazifa qilib belgilab qo‘ydi.

Uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etish g‘oyat murakkab jarayondir. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi va ushbu soha bola shaxsini har tomonlama tarbiyalash, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish va maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishida maktabgacha ta’lim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bolani ta’limning keying bosqichlariga muvaffaqiyatli ko‘chishida,



shu bilan birga butun hayoti davomida o‘z o‘rniga mavqeyiga ega bo‘lishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy faoliyatlar olib boriladi. Ushbu davlat o‘quv dasturi esa kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Barcha faoliyat turlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv maktabgacha ta’limda asta-sekin o‘rin egallaydi. An’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, ta’limning bunday yondashuvi ta’lim natijasiga qaratilgan bo‘lib, natija o‘rganilgan ma’lumotlarning miqdori emas, balki bolaning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir.

Kompetensiya ingilizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” degan ma’noni anglatadi. Kompetensiya - o‘z bilm va malakalarni muntazam boyitib borishni, yangi ma’lumotlarni o‘rganishni, yaratuvchilik, ixtirochilik va ularni amaliy faoliyat davomida qo‘llashni talab etadi.

Kompetentli bola- o‘z bilm, malaka va ko‘nikmalarni muayyan bir vaziyatlarda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv – maktabgacha yoshdagi bolalarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashish demakdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv beshta soha kompetensiyasi va tayanch kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi. Beshta soha kompetensiyasiga quydagilar kiradi.

- “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakillantirish” sohasi kompetensiyalari;

- “Ijtimoiy hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari;



- “Nutq muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari;

- “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari;

- “Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari mavjud.

Tayanch kompetensiyalarga esa quyidagilar:

Komunikativ kompetensiya – turli xil vaziyatlarda muloqotdan o‘rinli foydalana bilish ko‘nikmasi;

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va o‘z tengdoshlari bilan muloqot vaqtida axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Shaxsiy (“Men konsepsiyasini qurish”)

Bilish kompetensiyasi – atrof olamni ongli ravishda idrok qilish, anglash va olingan bilm, malaka va qadriyatlardan faoliyat jarayonida, amaliyotda qo‘llay olish, vazifalarini hal qilish uchun foydalinishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida kompetentsiyaga yo‘naltirilgan ta’limni amalgalashishning psixologik-pedagogik shartlarini ko‘rib chiqaylik :

- kattalarning bolalar bilan sub’ektga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabati, ya’ni har bir bolaga faoliyat, sherik, vosita va boshqalarni tanlash imkoniyatini beradigan vaziyatlarni ta’minalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda bolaning shaxsiy tajribasiga tayanishni ta’minalash;

- pedagogik baholashni bolalar muvaffaqiyatining nisbiy ko‘rsatkichlariga yo‘naltirish, ya’ni bolaning hozirgi yutuqlarini kechagi yutuqlari bilan taqqoslash, bolaning o‘zini o‘zi qadrashini rag‘batlantirish;

- bola rivojlanishining eng muhim omili sifatida o‘yin faoliyatini shakllantirish;

- bolaning hissiy-qiyomatli, ijtimoiy-shaxsiy, kognitiv, estetik rivojlanishiga va uning individualligini saqlashga yordam beradigan ta’lim muhitini yaratish; ta’lim



muhiti guruhdagi ijtimoiy muhitni, monitoring usullarini va rivojlanayotgan fan muhitini o‘z ichiga oladi;

- reproduktiv (tayyor modelni takror ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish faoliyati (sub’ektiv ravishda yangi mahsulot ishlab chiqarish), ya’ni tadqiqot, ijodiy faoliyat, birgalikdagi va mustaqil, harakatchan va statik faoliyat shakllari o‘rtasidagi muvozanat;
- oilaning ishtiroki.

Shunday qilib, tarbiyachi o‘z ishida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llash orqali, bиринчи navbatda, shaxsni rivojlantiradi, bolani ijtimoiylashtiradi, unda o‘z harakatlarini tartibga solish qobiliyatini va fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida uning zamonaviy hayotning tez-tez o‘zgarib turadigan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishi uchun asos bo‘ladi.

Xulosa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning to‘laqonli rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati nihoyatda katta. Shu bilan birga bolalar rivojlanishida pedagogning pedagogik faoliyatga to‘laqonli kasbiy faoliyati ham muhim sanaladi. Chunki pedagog o‘z faoliyatidagi mahorati, salohiyati orqali boladagi bo‘shliqlarni, uning yutuq va kamchilliklarini ko‘ra oladi, zarur vaqtda bolaga pedagogik yordam beradi. Pedagog yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda yuqori malakali bo‘lishi talab etiladi. Pedagog ta’lim jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun o‘zi berayotgan ma’lumoti haqida chuqur bilmga ega bo‘lishi, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, bolani ta’lim jarayoniga qiziqtira olishi, zamonaviy texnologiyalardan maqsadli va o‘rinli tarzda foydalana olishi va ta’lim sifatiga diqqatini qaratishi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.I.Mirhayitova “Pedagogik texnologiya”. O‘quv qo‘llanma Toshkent: 2020-y
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”-T; “Ma’naviyat” 2019-yil
3. Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur sarchashmalari” T;2013-y
4. P.Yusupova “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1993-yil.
5. B.X.Xodjayev. “Umumiyl pedagogika” Darslik-T: “Sanostandart”, 2007-yil